



---

## XOTIN-QIZLARNING DAVLAT VA JAMIYAT BOSHQARUVIDAGI ROLI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11063490>

**Berdiyorova Shoiraxmadjonovna**

*JDPU, Pedagogika ta'limi nazariyasi*

*kafedrasi katta o'qituvchisi*

### ANNOTASIYA

maqolada ayolning jamiyatda tutgan o' rni, ayolning oiladagi o' rni, ayollar rolining tanlanishi, ayol mavqei va bu borada olimlar olib borgan tadqiqotlar haqida yoritilgan.

#### **Kalit so'zlar**

zamonaviy ayol, jamiyat, rol, mavqe, ilm-fan, ijtimoiy rol, oila instituti, o'zini anglash, martaba, munosabat.

### АННОТАЦИЯ

В статье обсуждается роль женщины в обществе, роль женщины в семье, выбор женских ролей, статус женщин, а также исследования, проводимые учеными в этой области.

#### **Ключевые слова**

современная женщина, общество, роль, позиция, наука, социальная роль, институт семьи, самосознание, карьера, установка.

### RESUME

The article discusses the role of women in society, the role of women in the family, the choice of female roles, the status of women, as well as research conducted by scientists in this field.

#### **Key words**

modern woman, society, role, position, science, social role, family institution, self-awareness, career, attitude.

Respublikamizda ma'naviy-ma'rifiy ishlar bugun butunlay yangi bosqichga chiqmoqda. Qadimdan mahalla va oila ma'naviy tarbiyaning qudratli vositasi bo'lib kelgan ijtimoiy institutlardan biri hisoblanadi. Davlat va xalqning istiqboli, madaniy taraqqiyoti va taqdiri qanday bo'lishi ko'p jihatdan yoshlarning bugun qanday oilada va qanday tarbiya olishiga, ularning ma'naviy barkamollik darajasiga bog'liq.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqida ta'kidlaydiki: "... o'zini jamiyatimiz, yoshlarimiz ma'naviyati, g'oyaviy-mafkuraviy tarbiyasi uchun mas'ul deb bilgan insonlar – bu mahalla yoki diniy tashkilotlar bo'ladimi, huquq-tartibot idoralari xodimlari yoki katta ta'sir kuchiga ega ijodkor ziyolilar bo'ladimi – ularning barchasi ayniqsa faol bo'lishlari lozim"<sup>1</sup>. Shu nuqtai nazardan qaraganda xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini ta'minlash va ma'naviy-ma'rifiy faolligini oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarining ham roli katta. Chunki, nodavlat xarakterdagi, turli guruhlar va qatlamlar manfaatlarini ifodalaydigan jamoat tashkilotlari bugungi kunda zamonaviy fuqarolik jamiyatining muhim instituti e'tirof etilgan. Bunday tashkilotlarga xotin-qizlarni keng jalb etish orqali ularning huquq va erkinliklarini ta'minlashga erishiladi, shu bilan birga davlat va jamiyat boshqaruvida bevosita va bilvosita ishtiroki ta'minlanadi.

Xotin-qizlar ma'naviy-ma'rifiy faolligini takomillashtirish kontekstida sinergetik yondashuvni ta'minlash bo'yicha yagona Kontseptsiyani ishlab chiqib, amaliyotga joriy qilish asosiy vazifalardan biri bo'lsa, oilaviy qadriyatlarni saqlash va oilalardagi ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish borasida ham manzilli ishlarni tashkil etish, xotin-qizlar muammolarini keng jamoatchilik vakillarini jalb etgan holda hal qilish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xotin-qizlarning davlat va jamiyat qurilishi va boshqaruvidagi rolini kuchaytirish, ularning ma'naviy faolligini oshirishga alohida e'tibor qaratilayotgani tufayli ularning jamiyatdagi tutgan o'rni yuksaldi.

O'zbek ayoli ismi-sharifi yoniga –O'zbekiston Qahramoni!, –Deputat!, –Senator!, –Vazir!, –Vazir o'rinbosari!, –Akademik!, –Olima!, –Tadbirkor!, –Direktor! atamalari qo'shib aytilishi buning yaqqol misolidir. Zero, bugungi kunda mamlakatimiz aholisining qariyb 50 foizini, ya'ni 29 foizini 14 yoshgacha, 28 foizini 15-30 yoshlilar, 21 foizini 31-45 yoshlilar, 15 foizini 46- 60 yoshlilar, 7 foizini 60 yoshdan katta xotin-qizlar tashkil etadi<sup>2</sup>.

Respublikamizda olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy islohotlar yon atrofimizda sodir bo'layotgan voqealar, dunyoda kechayotgan globallasuv jarayonlari targ'ibot- tashviqot ishlarini yangi bosqichga ko'tarishni talab etayotgani hech kimga sir emas. Ana shu zaruriyatdan kelib chiqib xotin-qizlar ma'naviy -ma'rifiy faolligini takomillashtirishda davlat va nodavlat tashkilotlar "Ma'rifatchilar", "Faylasuflar", "Tarixchilar" jamiyatlari, "Sog'lom

<sup>1</sup>ПФ-4947-сон 07.02.2017. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида

<sup>2</sup> <file:///C:/Users/99891/Documents/> Хотин-қизлар ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш – мамлакатимизда амалга оширилаётган ислохотларнинг муҳим омили|| мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани мақолалар тўплами (2019 йил 26 февраль). – Т.: ТДИУ, 2019. – 491 бет.



avlod uchun”, “Mahalla”, “Oltin meros” jamg’armalari, “Ma’naviyat va ma’rifat” markazlari va ta’lim tarbiya muassasalari ma’naviy-ma’rifiy targ’ibot yo’nalishidagi imkon va salohiyatlarini birlashtirish, faoliyatlarini muvofiqlashtirish muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

Alohida qayd etish lozimki, mahalla tizimida kreativ yondashish asosida xotin-qizlar ma’naviy- ma’rifiy faolligini takomillashtirish, ijodiy tafakkurini rivojlantirish, ularning innovatsion potentsiali, liderlik xususiyatlarini shakllantirish kabi muhim masalalarga nazariy va amaliy jihatdan echim topish vazifasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mahalla va oila ma’naviy qadriyatlarni shakllantirishda, xotin-qizlar ma’naviy -ma’rifiy faolligini takomillashtirishda, milliy urf-odat va an’analarni yosh avlod ongiga singdirishda, ularni jismonan barkamol, ma’nan etuk, mehr-oqibatli insonlar qilib tarbiyalashda muhim o’rin egallab keladi. Shu sababli ma’naviy va jismoniy sog’lom avlodni tarbiyalash mahalla, oila, davlat va jamiyatning muhim mushtarak vazifalaridandir.

Globalashuv sharoitida jahon hamjamiyatida xotin-qizlar ma’naviy -ma’rifiy faolligini takomillashtirish bosh masala darajasiga ko’tarilgan muammolardan biri deb hisoblanmoqda. Har bir inson uchun oliy qadriyat bo’lgan xotin-qizlar ma’naviy-ma’rifiy faolligini takomillashtirish muammolarini aniqlashga, ularning echimini topishga, nikoh va oila institutining barqarorligini ta’minlashga qaratilgan faoliyat kuchaymoqda.

Shuning uchun ham mahallalarda tarkiban tashkil topgan oilalar orqali xotin-qizlar ma’naviy -ma’rifiy faolligini takomillashtirish, ma’naviy va jismoniy barkamol avlodni tarbiyalash - faqat milliy ehtiyojgina emas, balki umumjahon ahamiyatiga molik ehtiyoj hisoblanadi.

Haqiqatdan ham o’zbek xalqi hayotida mahalla tarbiya maskani hisoblanadi. Xotin-qizlar ma’naviy-ma’rifiy faolligini takomillashtirish, ayniqsa o’smirlik yoshidanoq qizlarni oilaga tayyorlash hamda sog’lom turmush tarzi qoidalarini ular ongiga singdirishda oila va mahallaning roli nihoyatda kattadir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 19 fevraldagi PF-5938-son «Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog’lomashtirish, mahalla institutini yanada qo’llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to’g’risida» Farmoni. [www/ / lex. Uz](http://www.lex.uz).

2. Alimova G, .Kamolov J, Abdullaeva SH. Oila-mahalla -ta’lim muassasasi hamkorligi. Mahalla kutubxonasi. O’zbekiston “Mahalla” xayriya jamoat fondi. T.: 2015, -7 b



3. Abdurahimova F.YU. Mahallada qizlarni sog'lom turmush tarzi asosida oilaga tayyorlashning pedagogik asoslari. p.f.n. olish uchun yozilgan diss. T.:2007.
4. Dosmetova G. Yoshlar hayotida mahallaning o'rni // Xalq ta'limi j. - T.: 2004. - №1. - 65-68-b.
5. Berdiyeva Sh.A . Mahallalarda xotin-qizlar ma'naviy -ma'rifiy faolligini takomillashtirish. Ta'lim, fan va Innovatsiya. 2020/ 4-son 90-92 betlar
6. Berdiyeva Sh.A Sinergetik yondashuv asosida mahallalarda xotin-qizlar ma'naviy -ma'rifiy faolligini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari. Mug'allim ham yzliksiz bilimlendirio' . №5 2020 jyl